



XALQ DARDINI KUFLAGAN SHOIR: BERDAQ HAYOTI

Ahmedova Dinora Qamaraddin qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18430981>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 27-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 30-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

Berdaqning ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzudir ("Bo'lgan emas", "Soliq", "Bu yil", "Umrim" va boshqalar)..

ABSTRACT


Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz. Buyuk shoir Berdaqning ijodi va hayot yo'lini chuqur o'rganmog'imiz biz uchun barcha adabiyotshunoslar ,kitobxonlar uchun ,yoshlarimiz o'rtasida keng targ'ib qilish ishlarini yanada jonlantirish lozim deb bilamiz. Berdaq hayoti va ijodini targ'ib qilishda inovatsiyalardan keng foydalanib Berdaqning she'rlarini zamonaviy tarzda kuylanishi, asarlaridan sahnalashtirilgan qisqa video lavxalarni ko'plab tillarda tayyorlash hamda kino filmlar orqali Berdaqning faoliyatini yoritsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur maqolada o'zbek va qoraqalpoq iftixori, buyuk shoir, adib Berdaq hayotining ayrim jihatlari hamda ijodining o'ziga xosligi tahlil etiladi.

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz. Buyuk shoir Berdaqning ijodi va hayot yo'lini chuqur o'rganmog'imiz biz uchun barcha adabiyotshunoslar ,kitobxonlar uchun ,yoshlarimiz o'rtasida keng targ'ib qilish ishlarini yanada jonlantirish lozim deb bilamiz. Berdaq hayoti va ijodini targ'ib qilishda inovatsiyalardan keng foydalanib Berdaqning she'rlarini zamonaviy tarzda kuylanishi, asarlaridan sahnalashtirilgan qisqa video lavxalarni ko'plab tillarda tayyorlash hamda kino filmlar orqali Berdaqning faoliyatini yoritsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur maqolada o'zbek va qoraqalpoq iftixori, buyuk shoir, adib Berdaq hayotining ayrim jihatlari hamda ijodining o'ziga xosligi tahlil etiladi. U nafaqat shoir, balki qoraqalpoq adabiyoti asoschisi ham. Mutafakkir to'g'risida ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Uning tarjimai holi va ijodiga oid ma'lumotlarni, asosan, o'zining asarlarida uchratish mumkin. U yoshligidan boshlab she'r yozishni mashq qila boshladi. Xalq qo'shiqlari, turli afsonalar,

ertaklar, maqol va matallar, dostonlar bilan tanishish, mashhur shoirlarning she'rlaridan bahramand bo'lish mutafakkir badiiy ijodini kamolga yetib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shunday qilib, Berdaq asta-sekin mashhur shoir va xalqqa tanilgan baxshiga aylana bordi. Eng muhimi, she'rlariga o'zi kuy bastalab kuylay boshladi.

Berdaq ko'p shaharlarga sayohat qildi. Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida bo'ldi. Urganch va Buxoroni ziyorat qilib, qadimiy yodgorliklar bilan tanishdi. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo'ja asarlarini chukur mutolaa qilgan, hamda ulardan o'rgangan. U tarixni va xalk, ogzaki ijodini juda ham yaxshi bilgan. Zamondosh shoirlar bilan musohib bo'ldi. Berdaq she'rlarining aksariyati kambag'al, beva-bechoralarning ayanchli hayoti, ularning og'ir mehnati, boy-zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shafqatsizligi, zo'rovonligi va adolatsizligiga bag'ishlangan. Uning she'rlarida insonparvarlik, tenglik, saxiylik, adolat, vatanparvarlik, mehr-shafqat, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, milliy ozodlik va haqiqat uchun kurash, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar o'z aksini topgan. Berdaqning she'r va dostonlari xalq ommasining turmushini xolisona va haqqoniy tasvirlab berish bilan ajralib turadi. ayniqsa, Xiva xonligi va Chor Rusiyasi hukmronligi davrida oddiy xalqqa nisbatan o'tkazilgan zulm-zo'rliklar shoirning bir qator she'rlarida ochiq tasvirlab berilgan. Berdaq o'zining ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan asarlarida, Sharqning boshqa mutafakkirlari kabi jamiyatni odil va ma'rifatli podshoh boshqarishi lozim, degan fikrga keladi.

U o'z davridagi adolatsiz va zolim xon davlatni boshqarishga yaroqsiz, deb hisoblaydi. Berdaq inson o'z faoliyatida, xatti- harakatida, maqsadiga erishishida erkin ekanligini yozadi. Masalan; u "Axmoq podsho" dostonida ayrim boylar va amaldorlarning jabr-zulmi oxirgi nuqtasiga borib taqalgandan so'ng sabr-toqati tugagan xalq o'z ixtiyori bilan ularga qarshi bosh ko'taradi, deydi. Iste'dodli shoir, mashhur baxshi, o'sha davrning boylari va boshqa amaldorlari tomonidan taqib ostiga olinar edi. Uning ajdodlari va o'zi ham kambag'al bo'lganligi uchun ular shoirni yo'q qilmoqchi bo'lardilar. Shoir kambag'al oilada tug'ilganini o'zining "Bilgaysiz" degan asarida yozgan. Og'a beklar, yoshim o'rta, Aytmagayman so'zni jo'rtta, Baxt izladim o'la-yo'rta, O'ylab farqni bilgaysiz. Og'a beklar, shoir bo'ldim, Gul edim, sarg'aydim, so'ldim, Dunyoga kelib ne ko'rdim, Ohu-zorimni bilgaysiz. Berdaq o'z xalqining ziyolisi, bilimdon insoni bo'lishiga qaramasdan, o'sha davrda hech kim uni taqdirlamadi, ulug'lamadi, hattoki hurmatga ham ega bo'lmadi. Bu haqda u o'zining yuqorida keltirilgan "Bo'lgan emas" asarida yozgan. Xullas buyuk shoirning taqdiri boylar, 2 Tanglauli shig'armalari, Nokis 1956-yil oxunlar, mullalar bilan qaramaqarshilikda o'tgan. Shoirning "Ahmoq poshsho" degan dostonining bosh qismida ham o'z taqdiri haqida so'zlab bergan. Berdaq ijodiy merosida axloq, xulq-odob, nafosat va go'zallik masalalari muhim o'rinni egallaydi. Uning she'rlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, oddiy axloq qoidalari to'g'risida qimmatli fikrlar uchraydi. Shoirning aytishiga qaraganda, ba'zi mulla va eshonlar xalq oldida o'zlarini halol va pok, adolatparvar etib ko'rsatadilar.



Amalda esa buning aksini ko'ramiz. Shoir ularning munofiqligini fosh etib tashlaydi. Berdaq o'zining axloqiy qarashlarida Sharqning eng yaxshi an'alarini davom ettirdi. U "Izladim", "Xalq uchun", "Yaxshiroq", "Menga kerak" kabi she'rlarida kishilarning halol mehnatini ulug'laydi. Uningcha, har bir odamning asosiy burchi xalqqa va uning farovonligi yo'lida xizmat qilishdir. Berdaq axloqiy qarashlarining yana bir muhim tomoni kishilarni hurmat qilish, ayniqsa, qarilar, zaif va nogironlar, kambag'al va beva- bechoralarni izzat nafsiga tegmaslik, ularga iloji boricha yordam ko'rsatishdir.

Berdag xuddi Navoiy kabi odamlarni axloq-odobiga qarab, ularni ikkiga: yaxshi va yomonga bo'ladi. Yaxshi odam deganda, u butun insoniy fazilatlarini o'zida to'plagan dono, aqlli, bilimdon, o'zgalarga yordam beruvchi, fe'l-atvori go'zal kishilarni ko'z oldiga keltiradi. Yomon odam esa Berdaqning nazarida, xalqning ofatidir, u xalqni ham, og'a-inini ham qadriga yetmaydi. Umuman olganda, shoir axloqiy qarashlarining markazida insoniylik turadi. Berdaq qo'p she'rlarida bolalarni tarbiyalash, kattalarni hurmat qilish, yosh avlodga vatanparvarlik, o'z xalqiga muhabbat, xalqlar o'rtasida do'stlik va birodarlik g'oyalari singdirishga intildi. Berdaq lirik she'rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining XVIII-XIX asrlardagi ijtimoiy hayoti o'z ifodasini topgan. U o'z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi.

Berdagning ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzudir ("Bo'lgan emas", "Soliq", "Bu yil", "Umrin" va boshqalar). Shoir haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchun fidokor kurashchilarni orzu qiladi ("Xalq uchun", "Menga kerak" va boshqalar). Tarixni mavzudagi "Avlodlar", "Omongeldi", "Azadosbiy", "Ernazarbiy" asarlarida shoir xalq qaxramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdaqning "Avlodlar" asari tarixiy voqealar solnomasi bo'lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi firoqlari bayon qilinadi. Berdaq ba'zi ta'magir ruhoniylarning kirdikorlarini fosh etadi ("Yaxshiroq", "Shekilli" va boshqalar), ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi

("O'g'limga", "Ahmoq bo'lma" va boshqalar) shular jumlasidandir. Berdaq – Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri va ma'naviy yetakchisi. Uning ijodiy merosi xalq dardini kuylash, adolat va milliy birlikka chaqirishning yorqin namunasi sifatida abadiyatga daxldor. Berdaqning nomi va asarlari qoraqalpo xalqining yuragida abadiy saqlanib qoladi. Mazkur maqola buyuk shoirning ijobiy merosini o'rganish va uni yangi avlodlarga yetkazish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tanlangan asarlar, Nukus. 1956.
2. Qurbonboyeb B, Berdaq va o'zbek adabiyoti, Toshkent. 1986.
3. O'zME. Birinchi jild, Toshkent.2000.
4. Mirtemir tarjimasi, Berdaq saylanma G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent.1978.

